



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI**  
**BESHARIQ TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI**

150300, Beshariq tumani, Oltin Vodiy ko'chasi, 46-uy, tel.: (998 73) 612 21 19,  
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: beshariq.t-yurmarkaz@adliya.uz

17.01.2022 yil

**Beshariq tuman**  
**Tibbiyot birlashmasi**

**XULOSA**

(Tibbiyot birlashmasining № NET-280 -sonli shartnoma loyihasiga )

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2.Loyihaning nomi:** Internet va telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha № NET-280-sonli shartnoma.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Beshariq tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022 yil 17 yanvar kuni ishlab chiqilib, 2022 yil 17 yanvar kuni markazga taqdim qilingan.

**4.Loyiha bo'yicha taklif:** Beshariq tuman tibbiyot birlashmasi hamda "O'zbektelekom" AK Farg'ona filiali o'rtasida internet va telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi № NET 280-sonli shartnoma tuzilgan. Shartnoma summasi 2 100 000 (hisob-kitob million) so'm bo'lib, unga QQS bilan 700 000 (yetti yuz ming so'm 00 tiyin) oylik abonent to'lovi kiradi. Mazkur shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi o'rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli Qonunining 10-moddasi (Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qoyiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 4-bandida, avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari bo'yicha xaridlar uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

**XULOSA**

Mazkur shartnoma loyihasini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.

**Beshariq tuman YuXKM**  
**bosh yuriskonsulti:**



**F.Jo'rayev**